

SHARTNOMA № 1 PULLIK TIBBIY XIZMAT KO'RSATISH UCHUN

5 yanvar 2022

Termiz sh.

Biz shartnoma tuzuvchilar nizomga asosan faoliyat ko'rsatuvchi Termiz temir yo'l birlashgan shifoxonasi, keyinchalik "Bajaruvchi" deb yuritiluvchi, nomidan Bosh shifokor Kurbanov Chori Shaymamatovich. Ikkinchi tomondan "Buyurtmachi" deb ataluvchi

"Elektromagnit moslashuv markazi" DUK

"Buyurtmachi" deb ataluvchi nomidan rahbari

R.P. Mansurov

1. SHARTNOMA MAVZUSI

1.1 Mazkur shartnoma bo'yicha "Bajaruvchi" "Buyurtmachi" ning buyurtmasiga asosan uning shtatidagi haydovchilarga ishga chiqishdan oldin tibbiy ko'rikdan o'tkazish majburiyatini, "Buyurtmachi" esa ko'rsatilgan tibbiy xizmatlar haqini shartnoma shartlari asosida o'z vaqtida to'lab berish majburiyatini oladi

2. TIBBIY XIZMATLAR NARXI VA UMUMIY QIYMATI

2.1 Tibbiy xizmatlar uchun to'lovlar O'zbekiston respublikasi milliy valyutasi sumda belgilanadi. Tibbiy xizmatlar narhi, tibbiy xizmatlar ko'rsatilgan kundan amalda bo'lgan narhnomalarda asosida belgilanadi va to'lov uchun taqdim etiladigan xisob varaqa fakturada qayd etiladi.

2.2 Bir haydovchi uchun o'rta tibbiy hodimning ko'rigi 6000 (o'lti ming) so'm

2.3 Shartnomaning bir yillik uchun taxminiy summasi 3 168 000 (uch million oltmish sakkiz yuz 80 ming) so'm

3. To'lov shartlari

3.1 "Buyurtmachi" ko'rsatiladigan tibbiy xizmatlar uchun oldindan 15% to'lovni amalga oshiradi. Tibbiy xizmatlar ko'rsatilganidan keyin qolgan 85% mablag'ni 30 kun muddat ichida "Bajaruvchi" ning hisob raqamiga o'tkazib beradi.

3.2 Oxirgi hisob kitob ko'rsatilgan tibbiy xizmatlar miqdori va qiymati bo'yicha amalga oshiriladi.

4. Tibbiy xizmatlar ko'rsatish tartibi

4.1 "Buyurtmachi" o'zining shtatlar jadvalidagi haydovchilariga tibbiy xizmat ko'rsatish uchun ularning ismi, sharifi va manzilini ko'rsatgan holda buyurtma beradi;

4.2 "Bajaruvchi" "Buyurtmachi" ning buyurtmasida ko'rsatilgan shahslarga tegishli tibbiy xizmatni ko'rsatadi.

4.3 "Bajaruvchi" "Buyurtmachi" ning buyurtmasida ko'rsatilgan shahslarga tegishli tibbiy xizmatni ko'rsatib bo'lganidan keyin har oyning oxirgi sanasida hisob varaqa fakturani "Buyurtmachi" ga taqdim etadi;

5. Tomonlarning majburiyatlari

5.1 "Bajaruvchi" majburiyatlari:

"Buyurtmachi" ga uning buyurtmasida ko'rsatilgan shahslarga tibbiy xizmat ko'rsatadi

"Buyurtmachi" ga ko'rsatilgan tibbiy xizmat ko'rsatilganligi bo'yicha hisob varaqa faktura taqdim qilish;

5.2 "Buyurtmachi" majburiyatlari:

"Bajaruvchi" ga tibbiy xizmat ko'rsatishi lozim bo'lgan shahslar to'g'risida tegishli buyurtma berish;

"Buyurtmachi" tomonidan tibbiy xizmat ko'rsatilganligi haqidagi hisob varaqa fakturani qabul qilib olish va 7 kun muddat ichida to'lovni to'liq amalga oshirish.

6. Tomonlarning javobgarligi

6.1. Tomonlar shartnomada ko'rsatilgan majburiyatlarni lozim bajarmagan taqdirda O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi va 29.08.1998 yildagi "Ho'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy huquqiy bazasi to'g'risida" gi qonuniga asosan javobgar bo'ladi.

6.2. To'lovlar muddati kechiktirilganda, "Buyurtmachi" kechiktirilgan har bir kun uchun 0,5% miqdorida, ammo kechiktirilgan to'lov summasining 50% dan oshmagan miqdorda penya to'laydi.

6.3. Tibbiy xizmat ko'rsatish kechiktirilganligi uchun "Bajaruvchi" tibbiy xizmat ko'rsatish kechiktirilgan har bir kun uchun 0,5% miqdorida, ammo kechiktirilgan tibbiy xizmat summasining 50% dan oshmagan miqdorda penya to'laydi;

7. Nizolarni xal etish tartibi

7.1. Mazkur shartnoma bo'yicha tomonlar shartlarni bajarmagan taqdirda, javobgar tomon yetqazilgan moddiy va ma'naviy zararlarni to'liq qoplaydi.

7.2. Tomonlar o'rtasida shartnomani tuzishda, bajarilishida, o'zgartirish va bekor qilishda yetqazilgan zararlarni qoplashda yuzaga keladigan nizolar ogohlantirish va da'vo hatlari tartibida, agarda murosaga kelinmaganda Surhondaryo viloyat ho'jalik sudi orqali hal qilinadi.

8. Boshqa shartlar

8.1. Ikki tomonning o'zaro yozma kelishuviga asosan mazkur shartnomaga kiritiladigan o'zgartirish va qo'shimchalar qonuniy kuchga ega bo'ladi. O'zgartirish va qo'shimchalar shartnomaga ilova qilinishi mumkin. Qilingan ilova ikki tomonning muhri va imzosi bilan tasdiqlangan bo'lishi shart.

9. Fors-major

9.1. Agar shartnoma tuzilgandan so'ng ikki tomon o'z majburiyatlarini g'ayri tabiiy holatlar, suv toshqini, yong'in, yer qimirlash va boshqa tabiiy ofatlar sababi bajarilmasa, hech qaysi tomon to'la yoki qisman bajarilmagan majburiyatlar uchun javobgar hisoblanmaydilar.

10. Shartnomaning amal qilish muddati

10.1. Mazkur shartnoma imzolangan kundan boshlab kuchga kiradi va "31" dekabr 2022 yilgacha amalda bo'ladi.

10.2. Mazkur shartnoma 2 nusxada tuzilgan bo'lib ikki tomon uchun ham teng kuchga ega bo'lib bank hisob -kitoblarini amalga oshirishga asos bo'ladi.

11. Tomonlarning Yuridik manzillari va imzolari

"BAJARUVCHI"

TERMIZ TEMIR YO'L BIRLASHGAN SHIFOHONASI

IBN SINO ko'chasi 8 uy

H/R: 20210000900311868010

OATB MILLIY BANK TERMIZ

MFO: 00324 INN: 200478032

BOSH SHIFOKOR CHORI SH KURBANOV

M.O. Imzo

"BUYURTMACHI"

"Elektromagnit moslashuv markazi" DUK

20210000500155263001AT "ALOQABANK"

Mirobod fikialifarg'ona yo'li ko'chasi, 15

tel: 230-41-34 MFO: 01091 INN: 201057444

OKED: 61900

Imzo